O‘zbekistonning seysmik xaritasi, sohadagi eng so‘nggi texnologiyalar va tarixiy islohotlar haqida bilishni istaysizmi?

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti tomonidan “Yangi O‘zbekiston: aholi va hududlarning seysmik xavfsizligini ta’minlashdagi tarixiy islohotlar davri” nomli kitobi o‘zbek va ingliz tillarida nashr etildi.



Mazkur kitob yer qa’ridagi seysmik jarayonlar, zilzilalarning kelib chiqish sabablari va ularning oqibatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda seysmik to‘lqinlar tabiati, ularning turlari, zilzila energiyasining tarqalishi, epitsentr va gipotsentr tushunchalari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy seysmologik asboblar va usullar yordamida zilzilalarni qayd etish, tahlil qilish va prognozlash masalalariga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Kitobda nazariy ma’lumotlar bilan birga amaliy misollar, xaritalar va seysmik ma’lumotlarni qayta ishlash usullari keltirilgan bo‘lib, u talabalar, geofizika va geologiya yo‘nalishidagi mutaxassislar hamda tabiiy ofatlar xavfini o‘rganuvchi olimlar uchun foydali qo‘llanma hisoblanadi.

Ma’lumot o‘rnida: 2025-yil 29-aprelda BMTning Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida BMT Bosh Assambleyasi O‘zbekiston tashabbusi bilan 29-aprelni – Xalqaro zilzila qurbonlarini xotirlash kuni, deb e’lon qilish to‘g‘risidagi rezolyutsiyani qabul qilgan. Dunyoning barcha mintaqalaridan 80 dan ortiq davlat ushbu tashabbusni qo‘llab-quvvatladi.